

**“Hududiy dasturlarni muvofiqlashtirish departamenti
to’g’risida”gi Nizom**

Toshkent – 2023

I. Umumiy qoidalar

1.1. “Hududiy dasturlarni muvofiqlashtirish departamenti to‘g‘risida”gi Nizom (bundan buyon matnda “Nizom” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlari qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomi hamda AT “Aloqabank” (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) Ustavi va boshqa ichki me‘yoriy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Ushbu Nizom Hududiy dasturlarni muvofiqlashtirish departamentining (bundan buyon matnda “Departament” deb yuritiladi) faoliyatini tashkil etishni, asosiy vazifalari, vakolat, huquq va majburiyatlari, hisobdorligi hamda javobgarligini belgilaydi.

1.3. Departamentda ish yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonun va qonunosti hujjatlari, shuningdek, Bankning ichki me‘yoriy hujjatlari hamda ushbu Nizomga muvofiq belgilanadi.

1.4. Departament o‘z faoliyatini Bank Boshqaruvi Raisi tomonidan tasdiqlangan joriy va istiqbolga mo‘ljallangan rejalar asosida olib boradi va Bankning boshqa tarkibiy bo‘linmalarini bilan hamkorlik qiladi.

1.5. Departament o‘ziga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi bo‘yicha hisobotni Departamentga mas’ul bo‘lgan Boshqaruv Raisi o‘rinbosariga berib boradi.

1.6. Departamentga Boshqaruv Raisi tomonidan tayinlanadigan department direktori rahbarlik qiladi.

1.7. Departament zimmasiga yuklatilgan vazifalarning lozim darajada bajarilishi uchun Departament direktori shaxsan mas’ul hisoblanadi.

1.8. Tarkibiy bo‘linmalar zimmasiga yuklatilgan vazifalarining lozim darajada bajarilishi uchun tegishli boshqarma hamda bo‘lim boshliqlari javobgardir.

1.9. Departament xodimlarining lavozim majburiyatlari lavozim yo‘riqnomalarida belgilanadi.

II. Tarkibiy tuzilishi

2.1. Departamentning ichki tarkibiy tuzilishi va shtat birligi Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

2.2. Departament quyidagi tarkibiy bo‘linmalardan tashkil topgan:

2.2.1. Loyihalarni boshqarish boshqarmasi;

a) Loyihalarni shakllantirish va boshqarish bo‘limi;

2.2.2. Dasturlar ijrosini ta‘minlash boshqarmasi;

a) Davlat dasturlari bilan ishslash bo‘limi;

b) Dasturlar ijrosi monitoringi bo‘limi.

III. Asosiy vazifalari

Departamentning asosiy maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari, hududlarga tashriflari davomida berilgan topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va yig‘ilish bayonlari ijrosini ta‘minlash, hukumat,

vazirliklar hamda davlat hokimiyyati organlari tomonidan Bank zimmasiga yuklatiladigan vazifalar ijrosini tizimli ravishda bajarib borish, shuningdek, Markaziy bank, Bank Kengashi hamda Bank Boshqaruvi qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlashdan iborat.

3.1. Departamentning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

3.1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bank, Bank Kengashi hamda Boshqaruvi qarorlari, farmoyishlari ijrosini ta'minlash;

3.1.2. Bankning investitsion loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish bo'yicha investitsion siyosatini ishlab chiqish hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilish;

3.1.3. Muntazam ravishda joylarga chiqqan holda, hududlarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan loyiha tashabbuskorlarini aniqlash;

3.1.4. Mahalliy investorlarning investitsion loyihalarini amalga oshirilishiga va ularni boshqarishga ko'maklashish bo'yicha:

a) tizimli ravishda "Yagona darcha" tamoyili asosida xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

b) loyihani to'liq amalga oshirilishi ustidan barcha investitsion bosqichlarni monitoring qilib borish;

d) investitsiya loyihalari bo'yicha tashabbuskorlarga biznes-reja/TIAlarni ishlab chiqishda moliyalashtirish mexanizmlari, manbalari va shartlarini aniqlashda ko'maklashish;

e) tashabbuskorlar tomonidan investitsion loyiha bo'yicha tuzilayotgan import shartnomalari loyihalarini ko'rib chiqib, tegishli takliflar berish;

f) Bank mijozlari bo'lgan tadbirkorlar tomonidan tuzilgan import shartnomalar asosida xorijiy hamkor banklar bilan ishlab, loyihaning eng maqbul moliyalashtirish shartlarini aniqlash;

g) tadbirkorlik sub'ektlariga tavakkalchilik, garovlar va ta'minlashning boshqa turlari bozor qiymatini puxta baholashni hisobga olgan holda, ajratilgan kreditlarning belgilangan muddatlarda va to'liq qaytarilishini ta'minlaydigan ishonchli mexanizmlarni qo'llash;

h) o'z mablag'i yetarli bo'lgan salohiyatli investorlarga investitsiya loyihalari bo'yicha manfaatli takliflarni berish yoki ularning istagiga ko'ra yangi loyihalarni shakllantirish;

i) yangidan tashkil etilgan yoki o'z mablag'iga ega bo'limgan tadbirkorlik sub'ektlariga qo'shimcha moliyalashtiruvchi hamkor yoki maslahatchi sifatida amaliy yordam ko'rsatish;

3.1.5. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga ajratilgan investitsion kreditlar bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish va Markaziy bankka taqdim etib borish;

3.1.6. Bank tuzilmalari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida o'rnatilgan tartib va qoidalarga riosa etilishi yuzasidan nazoratni olib borish;

3.1.7. Departament nomiga kelib tushgan yoki Bank rahbariyati tomonidan ijro uchun yo'llangan xatlar, shikoyatlar va hujjatlarga o'z vaqtida malakali javob tayyorlash;

3.1.8. Investitsion loyihalarni amalga oshirish, ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash bo'yicha rivojlangan davlatlarning yetakchi banklari va moliya institutlarining

tajribasini o'rganish;

3.1.9. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi uslublarini joriy qilish borasida izlanishlar olib borish va Bank Boshqaruviga takliflar berish;

3.1.10. Qonun hujjatlariga zid bo`limgan boshqa vazifalarni bajarish.

3.2. Loyihalarni boshqarish boshqarmasining vazifalari:

3.2.1. Investitsion loyihalarni Bankning Kredit siyosati hamda boshqa ichki me'yoriy hujjatlar mezonlariga muvofiq tanlab olish, mahalliy investorlarning investitsion loyihalarini amalga oshirilishiga va ularni boshqarishga ko'maklashish, investitsion loyihaning moliyaviy jihatdan o'zini qoplashi va rentabelligini tashabbuskorlar bilan birga ko'rib chiqish;

3.2.2. Investitsiya loyihalarini tanlab olishda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni tashqi va ichki bozorda sotilish istiqbollarini, loyiha samaradorligini, ishlab chiqarishning texnik va texnologik darajasini, loyihani amalga oshirishdan ko'rildigan moliyaviy foyda va loyiha tashabbuskorining moliyaviy ahvolini tahlil etish;

3.2.3. Bank o'z mablag'lari hisobidan, shuningdek xalqaro moliya institutlari kredit liniyalari mablag'lari hisobidan, hukumatlar kelishuvlarini va hukumatning boshqa qarorlariga asosan, davlat dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini ko'rib chiqish, ularni texnik-iqtisodiy asosini o'rganish va ekspertizadan o'tkazishni tashkillashtirish;

3.2.4. Bank Boshqaruvi tomonidan qo'yilgan boshqa topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida hamda sifatli bajarish;

3.2.5. Qonun hujjatlariga zid bo`limgan boshqa vazifalarni bajarish.

3.3. Loyihalarni shakllantirish va boshqarish bo'limining vazifalari:

3.3.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy bankning qaror va farmoyishlari, Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi qarorlari, farmoyishlari ijrosini ta'minlash;

3.3.2. Investitsion kreditlashga oid metodologik qo'llanmalar va yo'riqnomalarni ishlab chiqishda ishtirok etish, bo'lim xodimlari, joylarda kredit bo'limi (investitsion kreditlar bilan ishlovchi) xodimlarining malakasini doimiy oshirib borish, zahira kadrlarni tayyorlash va ular bilan o'quv-seminarlar, treninglar olib borish;

3.3.3. Investitsion loyihalarni boshqarishning yangi uslublarini joriy qilish borasida izlanishlar olib borish va Bank Boshqaruviga takliflar kiritish;

3.3.4. Bo'lim vakolati doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha tegishli ishlarni tashkil etishga doir tavsiyalarni ishlab chiqish va Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazlari (bundan buyon matnda «HKXKM» deb yuritiladi) va Kompleks xizmatlar ko'rsatish markazlariga (bundan buyon matnda «KXKM» deb yuritiladi) amaliy yordam ko'rsatish;

3.3.5. Bank investitsion faolligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va topshiriqlarining ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar tayyorlash;

3.3.6. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash, Bank Boshqaruviga, Markaziy bankka hamda tegishli tashkilotlarga hisobotlar taqdim qilish;

3.3.7. Bank Boshqaruvi tomonidan qo'yilgan boshqa topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish.

3.3.8. Qonun hujjatlariga zid bo`limgan boshqa vazifalarni bajarish.

3.4. Dasturlar ijrosini ta'minlash boshqarmasining vazifalari:

3.4.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, topshiriq va bayonlari ijrosini ta'minlash, manzilli va hududiy dasturlar doirasida yirik investitsion loyihalarning o'z vaqtida moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilishini monitoring qilish;

3.4.2. Bank tomonidan Respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida moliyalashtirilishi rejalashtirilgan investitsion loyihalar bo'yicha Markaziy bankning yagona bazasiga (dasturiy ta'minot) kiritilgan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilib borish, yagona bazada belgilangan vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirilishi ustidan nazorat olib borish, unga tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha choralarni ko'rish;

3.4.3. Respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida moliyalashtirilishi rejalashtirilgan investitsion loyihalar bo'yicha yagona baza ma'lumotlarini o'rganish va natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash hamda umumlashtirilgan axborotni Bank rahbariyatiga taqdim etib borish;

3.4.4. Tasdiqlangan hududiy dasturlarni belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi bo'yicha tegishli vazirlik, idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda ish olib borish, nazorat qilish hamda dasturlar bo'yicha takliflar berib borish;

3.4.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatlarga tashrifi davomida berilgan topshirqlari doirasida moliyalashtirilishi belgilangan yirik investitsion loyihalar ijrosini ta'minlash maqsadida ularning monitoringini olib borish, loyihalarni amalga oshishi bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, tahlil qilish va doimiy ravishda yangilash, investitsiya loyihalarini bo'yicha tayyorlangan tarmoq jadvallarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash bo'yicha barcha choralarni ko'rish;

3.4.6. Investitsiya loyihalarini tarmoq jadvallariga muvofiq ravishda o'z vaqtida moliyalashtirish bo'yicha HKXKM/KXKMLar, shuningdek loyiha tashabbuskorlari tomonidan majburiyatlar bajarilishi (kreditlar ajratilishi) ustidan monitoring olib borish;

3.4.7. Bank Boshqaruvi tomonidan qo'yilgan boshqa topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida hamda sifatli bajarish;

3.4.8. Qonun hujjaligiga zid bo'limgan boshqa vazifalarni bajarish.

3.5. Davlat dasturlari bilan ishlash bo'limining vazifalari:

3.5.1. Yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha biriktirilgan xodimlarning ishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

3.5.2. Investitsiya loyihalari amalga oshirilishi to'g'risidagi axborotni Bank Boshqaruviga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga taqdim etish;

3.5.3. Yirik investitsion va hududiy dasturlar doirasidagi loyihalarni o'rganish, ekspertiza qilish, ularni moliyalashtirish va amalga oshirish davomida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish hamda choralarni ko'rish;

3.5.4. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash va ushbu yo'nalishda ish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

3.5.5. Bank Boshqaruvi tomonidan qo'yilgan boshqa topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida hamda sifatli bajarish;

3.5.6. Qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa vazifalarni bajarish.

3.6. Dasturlar ijrosi monitoringi bo'limining vazifalari:

3.6.1. Bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'larning o'rnatilgan tartibda to'g'ri va maqsadli ishlatalishi, shartnomalarda belgilangan muddatlarda qaytarilishi hamda qarzdor tomonidan taqdim etilgan biznes-reja va texnik iqtisodiy asoslanmalarda belgilangan ko'rsatkichlarga muntazam ravishda ryoja etib borilishi ustidan tizimli nazorat va monitoring o'rnatish;

3.6.2. Investitsion loyihalarning monitoring natijalaridan kelib chiqqan holda HKXKM/KXKMLarning rahbar va investitsion kreditlash bo'yicha mas'ul xodimlariga o'rnatilgan tartibda ko'rsatmalar berish, ularning ijrosi ustidan nazorat o'rnatish;

3.6.3. Monitoring natijalariga ko'ra loyiha samaradorligini yanada oshirish hamda yuzaga kelgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha loyiha tashabbuskorlari bilan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

3.6.4. Loyihalarni amalga oshirish jarayonidagi muammoli masalalar yechimi bo'yicha tegishli ma'lumotlar asosida o'rnatilgan tartibda Markaziy bankka hamda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

3.6.5. Investitsion loyihalarni boshqarishning yangi uslublarini joriy qilish borasida izlanishlar olib borish va Bank Boshqaruvi takliflar kiritish;

3.6.6. Bank investitsion faolligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasasi Qarorlari va topshiriqlarining ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar tayyorlash;

3.6.7. Bank Boshqaruvi tomonidan qo'yilgan boshqa topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida hamda sifatli bajarish;

3.6.8. Qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa vazifalarni bajarish.

IV. Huquq va majburiyatlar

4.1. Departament o'z vazifalarini bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. Boshqa tarkibiy bo'linmalari va HKXKM/KXKMLardan zaruriy axborot, ma'lumot yoki hujjatlarni talab qilib olish hamda ish faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda foydalanish;

4.1.2. Departament vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan rahbariyatga tegishli takliflar kiritish;

4.1.3. Departament va uning xodimlarini ularning samarali ish faoliyatini tashkil qilish uchun barcha turdag'i zaruriy anjomlar hamda moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlanganligini talab etish;

4.1.4. Departament xodimlarining malakasini oshirish;

4.1.5. Departament faoliyatiga taalluqli bo'lgan tadbirdarda, yig'ilishlar, seminarlarda ishtirok etish.

4.2. Departament quyidagi majburiatlarga amal qiladi:

4.2.1. Bank operatsiyalarini amalga oshirishda firibgarlik, ta'magirlik, mansab lavozimini suiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik, Bankning ichki qabul qilingan kasb odob-axloqi qoidalari va muomala madaniyatiga qat'iy ryoja qilish;

4.2.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, Markaziy bank, amaldagi o'z faoliyati bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar,

shuningdek, Bankning ichki me'yoriy hujjatlari, Bank Boshqaruvi qarorlarini o'rganib borish va ishda unumli foydalanish;

4.2.3. Xizmat ma'lumotlarini o'z ichiga oluvchi barcha yozuvlarni o'zgacha tarzda tarqatmaslik, shuningdek xizmat axborotlaridan shaxsiy maqsadlarda foydalanmaslik;

4.2.4. "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazarat qoidalari"ga so'zsiz amal qilib borish, shuningdek, mijozlarni identifikatsiyalash va ular operatsiyalarini joriy tekshiruvdan o'tkazish, shubhali va (yoki) gumonli alomatlari mavjud operatsiyalar aniqlagan taqdirda bunday operatsiyalar haqida bevosita Bank rahbariyatiga va Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish xizmati xodimlariga yozma ravishda zudlik bilan xabar berish;

4.2.5. Mehnat va ijro intizomiga qat'iy rioya qilish;

4.2.6. Bank siriga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

4.2.7. Belgilangan hisobotlarni o'z vaqtida topshirish.

V. Javobgarligi

5.1. Departament o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar.

VI. Hisobdorligi

6.1. Departament Bank Boshqaruvi va mas'ul bo'lgan tegishli Boshqaruv Raisi o'rribosari oldida hisobdor.

VII. Yakuniy qoidalar

7.1. Mazkur Nizom belgilangan tartibda  Bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan va tegishli tartibda ro'yxatga olingen  Kundan boshlab kuchga kiradi.